

## O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BOR INSONLARGA YARATILGAN IMKONIYATLAR

*Vohidov Sardorbek*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o'qituvchisi*

*Tursunxo'jayeva Mahfuza Sultonxo'ja qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti 102-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilyotgan imkoniyatlar, ularning davlat tamonidan huquq va qonuniy ma'nfatlari himoya qilinishi, bu boradagi butun dunyo xamjamiyati tomonidan qabul qilinyotgan qonunlar va normativ huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Nogironlik, inson, huquq, Jamiyat, voyaga yetmaganlar, huquqiy ong.

**Kirish:** Dunyo aholisining 15% yoki qariyb 1 milliard insonning nogironligi bor. 2017-yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda 650 284 kishi nogiron deb tan olingan. Ulardan 84 908 nafari 16 gacha bo'lgan bolalarni tashkil etadi. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash, ularga insonparvarlik yordamini berish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Xususan, 3-dekabr yurtimizda “Xalqaro nogironlar kuni” - deb e'lon qilinishi amaldagi ishlarning tasdig'idir. Nogironligi bo'lgan insonlarga ijtimoiy-iqtisodiy yordam berish, ularni qo'llab-quvvatlash, nogiron bolalarni sog'lomlashtirish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligi, “Sog'lom avlod uchun” jamg'armasi tashabbusi bilan xorijiy hamkorlarni jalb etgan holda nogironligi mavjud bo'lgan bolalarni murakkab jarrohlik yo'li bilan bepul davolash ishlari amalga oshirilmoqda.

**Materal va metodlar:** Ushbu maqola ilmiy raqamlarga asoslangan bo'lib, unda nogironligi bor shaxslarning oldingi va hozirgi huquq va imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilingan.

### Natija va mulohozalar:

Bosh qomusimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida “Voyaga yetmagan mehnatga layqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir”<sup>1</sup> deb belgilangan. Mamlakatimizda aholining ehtiyojmand qismi, yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlarga kata e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2018, 45-modda

Karimovning 2006-yildagi “2007-2010-yillarda keksalar, nogironlar va pensionerlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko’rshatishni yanada kuchaytirish chora tadbirlari to’g’risida”<sup>2</sup>gi qaroriga muvofiq “Saxovat” va “Muruvvat” uylariga bepul dori-darmonlar yetkazib berilmoqda. Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 1-avgustdagi P.F-5006 sonli farmoyishi bilan tashkil etilgan “nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tayyorlash nogironlikni barvaqt aniqlash va oldini olish nogironligi bo’lgan shaxslarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko’rsatish, ularni kasbga o’qitish, ishga joylashtirish va ahvolini chuqur kompleks o’rganish”ga doir farmon e’lon qilindi. Yurtimizda onalar va bolalarning sog’ligini muhofaza qilish, nogiron bolalarni tug’ilishini oldini olish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash uchun bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda nogironligi bo’lgan yoshlarni kasb-hunargao’rgatish, ilm olishga jalb qilish, Oliy talimga kirishlarida ham bir qator imtiyozlar ajratilmoqda. Bundan ko’zlangan maqsad ularni oliy ma’lumotli qilish qolaversa jamiyatda o’z o’rinlarini topishga ko’maklashishdan iboratdir. Ularning yurtiga, oilasiga, do’stlariga kerak ekanligini his qilishi ularni hayotga bo’lgan muhabbatini oshiradi. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy malumotiga ko’ra 162,2 ming nafar nogiron shaxslar mehnat faoliyatining muayyan turlarini bajarish layoqatiga ega. Respublikamizdagi korxonalarda nogironligi bo’lgan shaxslar uchun qo’shimcha 18555 ta ish o’rinlari ajratilgan. 2020-yil holatiga ko’ra mehnatga layoqatli turli xil nogironligi bo’lgan kishilarning 21,2 ming nafari rasmiy ravishda ish bilan ta’minlangan. Ish bilan taminlabgina qolmasdan iqtisodiy yordam ham amalga oshirilmoqda. Xususan Shavkat Mirziyoyevning farmoniga muvofiq 2022-yil 1-apreldan nogiron bo’lib qolgan, muddatidan qat’i nazar imkoniyati cheklangan shaxslarga bir xil miqdorda 622 ming so’mga teng nafaqa tayinlandi. 18 yoshgacha nogironligi bo’lgan bolalarni parvarish qiluvchi ota-onalarga minimal iste’mol xarajatlaridan kam bo’lmagan miqdorda 500 ming so’m nafaqa joriy etilmoqda. Mazkur chorani amalga oshirishga 2022-yilda qo’shimcha 81 milliard so’m ajratildi. Bolalarni parvarish qiluvchi onalar uchun davlat budjetidan 157 milliard so’m ajratildi. Ular o’zlarini san’at, fan, madaniyat va sport kabi sohalarda o’zlarini ko’rsata olishga qodirdirlar. Bunga yorqin misol sportning turli yo’nalishlari bo’yicha bo’lib o’tadigan paralimpiya o’yinlaridir. Paralimpiya o’yinlari 1989-yil ilk bor tashkil qilingan. Bugungi kunda uning a’zolari 161 tani tashkil qiladi. Paralimpiya o’yinlarida sog’lom odamlardan tubdan farq qiladigan ko’zi ojiz, miyya yarim falajiga chalingan, oyoq qo’llari kesilgan, paraplegik va kvadriplegik sportchilar pratez qo’l oyoqlar bilan ishtirok etib kelishmoqda. Pratez operatsiya buyumlari va texnik

<sup>2</sup> I.A.Karimov P.Q-1861 2007-2010-yillarda keksalar, nogironlar va pensionerlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko’rshatishni yanada kuchaytirish chora tadbirlari to’g’risida. 2006

reabilitatsiya uskunalarini ishlab chiqarishni rivojlantirish tibbiy va texnik bazasini yanada mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risidagi prezident farmoni e'lon qilingan. Bugungi kunda paralimpiya o'yinlari ro'yxatida: velosiped, qilichbozlik, futbol, og'ir atletika, dzydo, suzish va kamondan o'q otish kabi sport turlari mavjud. O'zbekistonda paralimpiya o'yinlariga e'tibor juda kuchaygan. Sportchilar O'zbekiston bayrog'ini ko'klarga ko'tarib kelishmoqda. Misol uchun Elbek Sultonov para-yengil atletikaning F-12 toifasida yadro uloqtirish bo'yicha bronza medal sohibi. Nozimaxon Qayumova nayza uloqtirish bo'yicha, Mohigul Hamdamova disk uloqtirishda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Tokio-2020 da O'zbekiston paralimpiyachilari ikkita oltin, bitta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Imkoniyati cheklangan shaxslarga nafaqat O'zbekistonda balki, butun jahonda e'tibor kuchagan. Jumladan BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasidir. Ushbu konvensiya 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan bo'lib, 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. 2021-yil 28-iyunda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi uchun BMT nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya kuchga kirishiga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi. U Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi hamda YEXHT ning O'zbekistondagi vakillari bilan birgalikda tashkil qilindi. Ushbu loyiha nogironligi bo'lgan shaxslarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, qo'llab-quvvatlash, reabilitatsiya qilishga ko'maklashadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda O'zbekistonda inson va fuqarolarning huquqlari davlatning asosiy qonuni Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilganligi bu sohadagi asosiy islohotlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga aynan nogironligi bo'lgan shaxslarning bu borada imtiyozlar berilishi ularning sog'lom insonlar kabi huquqlaridan foydalanish imkoniyati mavjudligini alohida e'tirof etish joiz. Nogironligi bor insonlarning barcha sohalarda xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy va madaniy sohalarda tengligini e'tirof etish o'rinlidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov P.Q-1861 2007-2010-yillarda keksalar, nogironlar va pensionerlarni ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko'rshatishni yanada kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida. 2006
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent. 2018
3. 11-sinf Ozbekiston tarixi "Toshkent -2018 68.bet
4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi deklaratsiyasi. 1948